



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-may

131-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

Viloyat bozorlari va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatlarining miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-sonli qaroriga muvofiq, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-apreldagi 01-12/20-04-38/803-sonli, viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 15-apreldagi 32-22752-sonli xatlari hamda viloyat hokimi birinchi o‘rinbosarining 2025-yil 12-martdagi 115/16-26-sonli bildirgisiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

bozorlar va savdo komplekslarining ma‘muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Navoiy shahridagi “Navoiy savdo kompleksi” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli 4 qavatli savdo kompleksida undirib olinadigan ijara to‘lovi miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hududidagi umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar ro‘yxati va qiymati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov), tuman (shahar) hokimlariga:

viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to‘liq undirilishini; ushbu qarorning 1-bandiga muvofiq tasdiqlangan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati miqdorlarini viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslari, sotuvchi va xaridorlar e‘tiboriga yetkazilishini, bu haqdagi ma‘lumotlarni barcha bozorlar va savdo komplekslarida ko‘rinarli joylarga joylashtirilishini hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini;

ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarning yangi miqdorlarini to‘g‘ri qo‘llanilishi hamda to‘liq undirilishi va bozorlar daromadlarining belgilangan qismini

mahalliy budjetga o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlash topshirilsin.

3. Viloyat hokimining 2019-yil 8-fevraldagi "Viloyat bozorlari va savdo komplekslarida bir martalik yig'imga, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatlarining miqdorlarini belgilash to'g'risida"gi Q-24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh. Raubayeva) mazkur qarorni "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarida rasmiy e'lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Ushbu qaror 2025-yil 1-iyundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R. Sulaymonov, viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i S. Nazarov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 28-maydagi
131-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatining miqdorlari

(so'mda)

T/r	Mahsulot turi	O'lchov birligi	Navoiy shahri	Zarafshon shahri	Karmana tumani	Uchquduq, Qiziltepa, Xatirchi va Navbahor tumanlari	G'ozg'on shahri, Konimex, Nurota va Tomdi tumanlari
I. Bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlarning miqdorlari							
1.	Mahsulotlarini savdo o'rinlarida sotish:						
1.1.	Mevalar: Ho'l mevalar: olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo'ri, gilos, ko'k va qizil sulton, o'rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h.k.	1 o'rin /kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho'l mevalar.	1 o'rin /kunga	13 000,0	13 000,0	11 000,0	11 000,0	9 000,0

	Quruq mevalar, yongʻoqlar: turshak, bargak, mayiz, yongʻoq, yer-yongʻoq, bodom, pistalar, shoʻr danak va h.k.	1 oʻrin /kunga	13 000,0	13 000,0	11 000,0	11 000,0	9 000,0
1.2.	Sabzavotlar: kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholgʻom, bulgʻor qalampiri, baqlajon, patisson, pomidor, bodring (shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring) va h.k. hamda pishirilgan joʻxori	1 oʻrin /kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
1.3.	Poliz mahsulotlari: handalak, qovun, tarvuz, qovoq 1 iyundan - 30 sentyabrgacha (6 kv.metr gacha)	1 oʻrin /kunga	13 000,0	13 000,0	11 000,0	11 000,0	9 000,0
1.3. 1	Poliz mahsulotlari: handalak, qovun, tarvuz, qovoq, 1 oktyabrdan - 31 maygacha (6 kv.metr gacha)	1 oʻrin /kunga	9 000,0	9 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
1.4.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bugʻdoy, sul, arpa va h.k.	1 oʻrin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0
1.5.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, noʻxat va h.k	1 oʻrin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0
1.6.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlogʻi, suzma va h.k.	1 oʻrin /kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
1.7.	Tuzlamalar: karam, bodring, pomidor va h.k.	1 oʻrin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0
1.8.	Ziravor va dorivorlar (zira, murch, qalampir va h.k) hamda asal	1 oʻrin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0

1.9. .	Ko'katlar (shu jumladan issiqxonada yetishtirilganlar)	1 o'rin /kunga	7 000,0	7 000,0	6 000,0	6 000,0	5 000,0
1.10 .	Tuxum	1 o'rin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0
1.11 .	Gullar va ko'chatlar (6 kv.metr gacha)	1 o'rin /kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
1.12 .	Non mahsulotlari (obi non, patir va h.k)	1 o'rin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0
1.13 .	Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari	1 o'rin /kunga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	7 000,0
1.14 .	Sanoat yo'li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar	1 o'rin /kunga	12 000,0	12 000,0	11 000,0	11 000,0	10 000,0
1.14 .1	Bozor sharoitida tez tayyorlanadigan ovqatlar (xod-dog, pissa, lavash, dunar, bilyashi, somsa, va h.k)	1 o'rin /kunga	12 000,0	12 000,0	11 000,0	11 000,0	10 000,0
1.15 .	Milliy taomlar	1 o'rin /kunga	12 000,0	12 000,0	11 000,0	11 000,0	10 000,0
1.16 .	Polietilen va qog'oz paketlar, savatlar va posilka qutilar	1 o'rin /kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
1.17 .	Supurgi	1 o'rin /kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
1.18 .	Baliq mahsulotlari sotish	1 o'rin /kunga	15 000,0	15 000,0	12 000,0	12 000,0	9 000,0
1.19 .	Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari (6 kv.metr gacha)	1 o'rin /kunga	7 000,0	7 000,0	6 000,0	6 000,0	5 000,0

2.	Go'sht mahsulotlari: mol, qo'y, cho'chqa, jigar, dumba va x.k;	1 o'rin /kunga	40 000,0	40 000,0	35 000,0	35 000,0	30 000,0
2.1	Parranda go'shti	1 o'rin /kunga	25 000,0	25 000,0	20 000,0	20 000,0	15 000,0
2.2	Kalla-poycha, ichak-chavoq	1 o'rin /kunga	12 000,0	12 000,0	10 000,0	10 000,0	8 000,0
3.	Mahsulotlarini avtomashinalardan sotish:						
	yengil avtomashinalaridan	1 mashina	15 000,0	15 000,0	12 000,0	12 000,0	10 000,0
	yuk avtomashinalaridan	1 mashina	25 000,0	25 000,0	20 000,0	20 000,0	15 000,0
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan	1 mashina	25 000,0	25 000,0	20 000,0	20 000,0	15 000,0
	mahsulotlarini yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv.metr gacha)	1 o'rin /kunga	14 000,0	14 000,0	10 000,0	10 000,0	10 000,0
4.	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch, makkajo'xori poyasi va h.k.	1 mashina	15 000,0	15 000,0	10 000,0	10 000,0	10 000,0
5.	Qurilish materiallarini sotish:						
5.1.	Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotish, jumladan:						
	6 kv.metr gacha	1 o'rin /kunga	15 000,0	15 000,0	12 000,0	12 000,0	10 000,0
	6 kv.metrdan – 15 kv.metr gacha	1 o'rin /kunga	18 000,0	18 000,0	14 000,0	14 000,0	10 000,0
	15 kv.metrdan – 30 kv.metr gacha	1 o'rin	20 000,0	20 000,0	18 000,0	18 000,0	12 000,0

		/kunga					
5.2.	Kichik o'lehamdagi qurilish materiallari (mayda o'lehamli), santexnika, yoritish uskunolari (qandil, tungi yoritish chiroqlari va h.k.) sotish (6 kv.metr gacha)	1 o'rin /kunga	9 000,0	9 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
6.	Ilgari foydalanishda bo'lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:						
	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o'rin /kunga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	8 000,0
	Uy-ro'zg'or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o'rin /kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	7 000,0
7.	Avtotransport vositalarini sotish:						
	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	35 000,0	35 000,0	30 000,0	30 000,0	20 000,0
	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko'taruvchi transport vositalari	1 dona	37 000,0	37 000,0	30 000,0	20 000,0	20 000,0
	motosikl, motoreller va mopedlar	1 dona	12 000,0	12 000,0	10 000,0	10 000,0	9 000,0
	velosipedlar	1 dona	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	7 000,0
8.	Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun						
8.1.	Ot, toy, tuyay	1 bosh	25 000,0	25 000,0	20 000,0	20 000,0	20 000,0
	bo'taloq, eshak	1 bosh	15 000,0	15 000,0	15 000,0	15 000,0	15 000,0
8.2.	Yirik shoxli qoramol:						
	yirik shoxli qoramol (shu jumladan sigir buzog'i bilan)	1 bosh	25 000,0	25 000,0	25 000,0	25 000,0	25 000,0
	buzoq	1 bosh	15 000,0	15 000,0	15 000,0	15 000,0	15 000,0
8.3.	Mayda shoxli qoramol:						

	Qo'y, echki (qo'y qo'zisi bilan, echki ulog'i bilan va x.k.)	1 bosh	14 000,0	14 000,0	14 000,0	14 000,0	14 000,0
	Qo'zi, uloq	1 bosh	10 000,0	10 000,0	10 000,0	10 000,0	10 000,0
8.4.	Cho'chqa va cho'chqa bolalari	1 bosh	10 000,0	10 000,0	10 000,0	10 000,0	10 000,0
9.	Uy parrandalari: kurka, tovuq, o'rdak, g'oz	1 bosh	5 000,0	5 000,0	5 000,0	5 000,0	5 000,0
	tovuq, kurka, o'rdak, g'oz jo'jalari	10 bosh	5 000,0	5 000,0	5 000,0	5 000,0	5 000,0
10.	Itlar va mushuklar	1 o'rin /kunga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	8 000,0
11.	Manzarali qushlar, akvaryum baliqlari	1 o'rin /kunga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	8 000,0
12.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar	1 o'rin /kunga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	8 000,0
13.	Poyabzal ta'mirlash xizmati	1 o'rin /kunga	7 000,0	7 000,0	6 000,0	6 000,0	5 000,0
II. Bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish, ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarining miqdorlari							
1.	Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovi: *						
	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyig a	55 000,0	50 000,0	40 000,0	40 000,0	20 000,0
	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyig a	55 000,0	50 000,0	40 000,0	40 000,0	20 000,0

	Umumiy ovqatlanish	1 kv.m./oyig a	40 000,0	40 000,0	35 000,0	35 000,0	20 000,0
	Maishiy xizmat ko'rsatish	1 kv.m./oyig a	35 000,0	35 000,0	20 000,0	20 000,0	17 000,0
	Boshqa turlar (Ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k.)	1 kv.m./oyig a	30 000,0	30 000,0	17 000,0	17 000,0	15 000,0
2.	Inventarlarni ijaraga berish:						
2.1.	Tosh-tarozilar uchun	1 kunga	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0	4 000,0
2.2.	Katta yuk tortish tarozilari uchun						
	150 kg.gacha	1 kunga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	8 000,0
	150 kg.dan 1500 kg.gacha	1 kunga	15 000,0	15 000,0	10 000,0	10 000,0	9 000,0
2.3.	Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o'rindiq, voronka, patnis, savat va h.z.) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0	4 000,0
2.4.	Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0	3 000,0
2.5.	Mahsulotlar uchun brezent berish	1 kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	7 000,0
2.6.	Aravalar uchun	1 kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	7 000,0

2.7.	Reklama, savdo shaxobchalaridan (do'kondan) tashkarida tovarlarni sotish uchun maxsus ajratilgan yer aydonidan foydalanganlik uchun (1 kv.metr)	1 kunga	6 000,0	6 000,0	5 000,0	5 000,0	4 000,0
3.	Ko'rsatiladigan xizmat turlari:						
3.1.	Qishloq xo'jalik va boshqa oziq - ovqat mahsulotlarini saqlash:						
	sovutgichlarda (har bir yashik, qop va h.k uchun)	1 kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	7 000,0
	omborxona, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k uchun)	1 kunga	9 000,0	9 000,0	8 000,0	8 000,0	7 000,0
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (1 ta savdo o'rni hisobidan)	1 kunga	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0	3 000,0
3.2.	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o'lchamdagi joy uchun)	1 kunga	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	6 000,0
3.3.	Mahsulotlarni tarozida tortish:						
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0	3 000,0
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	7 000,0	7 000,0	6 000,0	6 000,0	5 000,0
3.4.	Avtotarozilardan foydalanish:						
	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo'lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan:						
	yuk bilan	1 marta	10 000,0	10 000,0	8 000,0	8 000,0	6 000,0

		o'lchash					
	yuksiz	1 marta o'lchash	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	5 000,0
	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnagacha bo'lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:						
	yuk bilan	1 marta o'lchash	8 000,0	8 000,0	7 000,0	7 000,0	5 000,0
	yuksiz	1 marta o'lchash	7 000,0	7 000,0	6 000,0	6 000,0	5 000,0
	yengil avtomashinalardan:						
	yuk bilan	1 marta o'lchash	7 000,0	7 000,0	6 000,0	6 000,0	4 000,0
	yuksiz	1 marta o'lchash	6 000,0	6 000,0	5 000,0	5 000,0	4 000,0
	tirkamali yengil avtomashinalardan:						
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000,0	6 000,0	5 000,0	5 000,0	4 000,0
	yuksiz	1 marta o'lchash	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0	3 000,0
3.5.	Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)	1 kunga	15 000,0	15 000,0	12 000,0	12 000,0	10 000,0
3.6.	Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:						
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	4 000,0	4 000,0	4 000,0	3 000,0	3 000,0
	yuk avtomashinalari uchun	1 soatga	5 000,0	5 000,0	5 000,0	4 000,0	4 000,0
3.7.	Hojatxona xizmatidan foydalanish	1 marta	2 000,0	2 000,0	2 000,0	2 000,0	2 000,0

3.8.	Telefondan foydalanish	1 marta	1 000,0	1 000,0	1 000,0	1 000,0	1 000,0
3.9.	Radiouzel orqali e'lon berish	3 marta takror	3 000,0	3 000,0	2 000,0	2 000,0	2 000,0
3.10 •	Umumiy foydalaniladigan ob'yektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo'laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo'g'inlari, umumiy hududni qo'riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari)**	1 kv.m./oyiga	10 000,0	10 000,0	9 000,0	9 000,0	7 000,0

* Mazkur band Navoiy shahridagi "Navoiy savdo kompleksi" AJ balansida bo'lgan 4 qavatli savdo kompleksi uchun tadbqiq etilmaydi. Savdo kompleks uchun ijara to'lovlari miqdorlariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifning 2-ilovasida.

** Mazkur xizmatlarning ro'yxati va qiymati qarorning 3-ilovasida.

Izoh: 1.Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o'rni) o'lchami 1-1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o'lchamdan ortiq o'rin uchun qo'shimcha ravishda har bir savdo o'rni uchun belgilangan to'lov miqdorida joy haqi undiriladi.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari aralash holda sotilganda, to'lov sotiladigan mahsulot turlari bo'yicha belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha undiriladi.

3. Yuqoridagi bozorlar va savdo komplekslari tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga ko'rsatilgan.

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 28-maydagi
131-5-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Navoiy shahridagi “Navoiy savdo kompleksi” aksiyadorlik jamiyatiga
qarashli 4 qavatli savdo kompleksida undirib olinadigan ijara to‘lovi
miqdorlari**

(so‘mda)

T/ r	Savdo kompleksining qavatlar	Ijara to‘lovi miqdori (1 kv.m./oyiga)
1.	Hunarmandlar qavatidagi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari uchun <i>(kompleks pastki qismi)</i>	50 000,0
2.	1-qavatdagi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari uchun	55 000,0
3.	2-qavatdagi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari uchun	50 000,0
4.	3-qavatdagi savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari uchun	30 000,0

IZOH: Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan undirib olinadigan ijara to‘lovlari xizmatlar qiymati qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birga ko‘rsatilgan.

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 28-maydagi
131-5-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hududidagi umumiy
foydalaniladigan ob'yektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy
xizmatlar ro'yxati va qiymati**

so'mda.

T/r	* Xizmatlar (1 kv.m./oyiga)	Navoiy va Zarafshon shaharlari	Uchquduq, Qiziltepa, Xatirchi, Karmana va Navbahor tumanlari	G'ozg'on shahri, Konimex, Nurota va Tomdi tumanlari
1.	Ichimlik suvini iste'molchiga yetkazish	1000,0	800,0	250,0
2.	Chiqindilarni yig'ish va olib chiqish	1400,0	1300,0	1200,0
3.	Bozorning umumiy hududini yoritish	700,0	700,0	500,0
4.	Irrigatsiya (texnik) suvini yetkazib berish	20,0	20,0	10,0
5.	Tashqi muhandislik - kommunikatsiya xizmatlari	230,0	200,0	150,0
6.	Obodonlashtirish ishlari, shu jumladan, hududni asfaltlash, yo'laklarni ta'mirlash, bruschatka yotqizish, bozorning umumiy hududini ko'kalamzorlashtirish, kanalizatsiya tashqi lotoklarini ta'mirlash, umum foydalaniladigan joylarni ta'mirlash (oxoklash, bo'yash va h.k)	1600,0	1450,0	660,0
7.	Yoritish tizimini doimiy ishlashini ta'minlash va yangilab borish	900,0	450,0	250,0
8.	Banner, shiorlar, yo'l ko'rsatish belgilari tayyorlash	150,0	120,0	50,0
9.	Reklama va e'lonlar taxtasini tayyorlash	100,0	80,0	50,0
10.	Farroshlik xizmati	2500,0	2400,0	2100,0
11.	Inventar va materiallar	450,0	350,0	200,0
12.	Umum foydalaniladigan joylarni dezinfektsiya qilish	450,0	430,0	380,0
13.	Umumiy qo'riqlash xizmati	1300,0	800,0	600,0
14.	Boshqalar	1200,0	900,0	600,0

Jami	12000,0	10000,0	7000
-------------	----------------	----------------	-------------

IZOH:

1. Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko'rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko'rsatilgan egallagan yer maydonidan kelib chiqib haq to'lanadi.

2. Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan umumiy foydalaniladigan ob'yektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar qiymati qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga ko'rsatilgan.

3. Shuningdek yuqoridagi xizmatlar qiymati bozorlar va savdo komplekslari tomonidan majburiy xizmatlar ko'rsatilgan holatlarda majburiy hisoblanadi.